

## O'ZBEK XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING TAKOMILLASHUVIDA MUTAFAKKIR OLIMLARNING O'RNI

*Sobirov Otajon Zohidjon o'g'li*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'u asboblarining takomillashuvida mutafakkir olimlarning o'rni, milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutishi haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mutafakkir, cholg'u, milliy, qadriyat, asbob, soz, ijrochi, ijro, soz.

### Аннотация

В данной статье рассматривается роль мыслителей и учёных в совершенствовании узбекских народных музыкальных инструментов, а также особое место, которое наши национальные музыкальные инструменты занимают в нашей национальной музыкальной культуре благодаря своей самобытности, привлекательности узорного декора, разнообразию звучания и несравненным исполнительским возможностям.

**Ключевые слова:** мыслитель, инструмент, национальный, ценность, инструмент, музыка, исполнитель, исполнение, музыка.

### Abstract

This article discusses the role of thinkers and scientists in the improvement of Uzbek folk musical instruments, and the special place that our national musical instruments occupy in our national musical culture with their uniqueness, attractiveness of pattern decoration, diversity of sound and incomparable performance possibilities.

**Keywords:** thinker, instrument, national, value, instrument, music, performer, performance, music.

### KIRISH

Inson ovozi azaldan eng mukammal cholg'u hisoblangan<sup>1</sup>. Turli mizrobbli yoki torli-kamonchali musiqa cholg'ulari ijrochilar hamisha o'zları yaratgan kuylar ohangini inson ovoziga yaqinlashtirishga, bunda o'ziga xos musiqiylikka erishishga, ohangi ta'sirliroq, samimiyoq, ravanroq chiqarishga intilishgan<sup>2</sup>. Olim ohangi inson ovoziga juda yaqin turgan cholg'ular ud va rubobni batafsil ta'riflagan. Rubob tushunchasi ostida g'ijjakka o'xshagan, torlari kamoncha bilan chalingan cholg'ular

<sup>1</sup> Farobiy, A.N. (1989). *Kitob al-musiqa al-kabir*. Toshkent: Fan nashriyoti.

<sup>2</sup> Abdugodirov, A. (2008). *Sharq musiqasi nazariyasi*. Toshkent: Sharq

nazarda tutilgan<sup>3</sup>. Damli cholg‘ular ichida risolalarda nay (fleyta) va surnay, shuningdek Vizantiya musiqasidagi organun (muzlar, muzamir) kabi cholg‘ular tilga olingan<sup>4</sup>.

O‘sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Safiuddin Urmaviy musiqa ilmi tizimini rivojlantirdi. U usta udchi, xonanda va bastakor sifatida mashhur bo‘lgan. Urmaviy o‘z tajribalariga asoslangan nazariy qoidalarini "Kitab al-Advar" (Taqvodorlik kitobi) nomli asarida bayon qilgan. Unda ud cholg‘usining tuzilishi, tovush diapazoni va sozlash tizimi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Ud besh juft tordan iborat bo‘lib, kvarta intervalda sozlangan va har biri maxsus nom bilan atalgan: bam, masnos, masne, zir va xadd<sup>5</sup>.

Qo‘sh torli cholg‘u — dutor haqida ilk yozma ma’lumotlar Al-Husayniyning XV asrga oid "Kanon" asarida uchraydi. Bu atama uni boshqa ko‘p torli cholg‘ulardan ajratish uchun ishlatilgan (masalan: soz, tanbur, ud)<sup>6</sup>. Darvish Alining XVI-XVII asrlarga oid risolasi esa O‘rta Osiyo musiqasining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi<sup>7</sup>.

Darvish Ali torli, mizroblı cholg‘ular orasida udni eng takomillashgan cholg‘u sifatida tilga olib, uni "cholg‘ular shohi" deb ataydi. Uddagi juft sozlangan o‘n ikki tor Forobiy davridagi udga qaraganda kengroq diapazonga ega bo‘lgan. Unga ko‘ra, oltinchi tor pastki registrda kengayish hosil qilgan<sup>8</sup>. Shuningdek, risolada chang cholg‘usi homiysi sifatida afsonaviy Zuhraga bag‘ishlangan, u yetti maqomni ijro eta oladigan 26 torli cholg‘u sifatida tasvirlanadi<sup>9</sup>.

Risolada nay, qonun, rubob, kobiz, g‘ijjak, musiqor, enbon-nay (damli charmli) va xitoyda tarqalgan ruxavza kabi cholg‘ular ham tilga olingan. Ulardan yettitasi — tanbur, chang, qonun, ud, rubob, kobiz, g‘ijjak — eng ommaviy cholg‘ular sifatida ajralib turadi<sup>10</sup>. Mazkur cholg‘ular ansambl tarkibida uyg‘un tovush koloritini yaratishda ishlatilgan.

Darvish Alining guvohligi shundan iboratki, u tilga olgan cholg‘ularning ko‘pchiligi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g‘ijjak, kobuz, doira, nog‘ora, ud) bugungi kunda ham O‘zbekiston, Tojikiston, Ozarbayjon kabi mamlakatlarda saqlanib qolgan va yanada takomillashgan<sup>11</sup>. Bu cholg‘ular asrlar mobaynida o‘zbek xalqining madaniy turmushida mustahkam o‘rin egallagan, shu sababli ularni o‘zbek xalq cholg‘ulari deb atash o‘rinlidir<sup>12</sup>.

<sup>3</sup>Safarov, D. (2010). "Torli cholg‘ular va ularning evolyutsiyasi." *Musiqashunoslik jurnali*, 1(2), 35–41.

<sup>4</sup> Mamedov, F. (1996). *Sharq cholg‘ulari tarixidan*. Boku: Elmlar nashriyoti.

<sup>5</sup> Urmaviy, S. (2002). *Kitab al-Advar (Taqvodorlik kitobi)*. Qayta nashr. Tehron: Musiqa markazi.

<sup>6</sup> Al-Husayniy, M. (1998). *Musiqा kanonlari*. Toshkent: O‘zR Fanlar akademiyasi

<sup>7</sup> Nazarov, O. (2011). "Darvish Ali risolasining tahlili." *O‘zbek musiqasi merosi*, 5, 25–32.

<sup>8</sup> Darvish Ali. (XVII asr). *Risola*. Qo‘lyozma. O‘zR FA Qo‘lyozmalar instituti fondi.

<sup>9</sup> Ibid.

<sup>10</sup> Ibid.

<sup>11</sup> Karimov, M. (2003). *O‘zbek xalq cholg‘ulari*. Toshkent: Fan.

<sup>12</sup> Sharipov, B. (2010). "Milliy cholg‘ularimiz merosi." *Madaniyat va Ma‘rifat*, 4(12), 22–27

Navoiy davrida nay, ud, g‘ijjak, qonun, karnay, surnay, nog‘ora, doira va chang ijrochiligi keng tarqalgan. Bu cholg‘ular ansambl va yakka ijroda birdek qo‘llanilgan. Ayniqsa chang yakka ijro cholg‘usi sifatida alohida e’tiborga molik bo‘lgan<sup>13</sup>.

XV-XVII asr yozma manbalarini tahlil qilish orqali O‘rta Osiyo musiqa ijrochilik madaniyati shu davrda o‘z kamolotiga yetgani aniqlanadi. O‘zbek ijrochilar faqat kuy chalish bilangina emas, balki o‘zlari musiqa asarlari yaratish bilan ham mashhur bo‘lganlar. Ayniqsa ud, nay, g‘ijjak, tanbur, konun, kobiz chalishda mahoratlisan’ atkorlar paydo bo‘lgan va ular ansambllarda faol ishtirok etganlar<sup>14</sup>. Vosifiy o‘z “Esdaliklar”ida ushbu cholg‘ularni chalayotgan mashhur hunarmandlarni tilga olgan. Ular musiqa majlislarida qatnashib, improvizatsion ijroda bellashgan, yoshlar esa bu orqali o‘z san’atini namoyish etishga harakat qilganlar<sup>15</sup>.

O‘zbek xalq cholg‘ularining ijrochilik imkoniyatlari doimo kengaydi va takomillashdi. Turli xil xalq cholg‘u ansambllarining tashkil etilishi, yakkanavoz cholg‘uchilikning rivojlanish musiqa ustalaridan cholg‘ularni yanada mukammallashtirishni talab etdi. Biroz vaqtan so‘ng xalq musiqasi ansambllarida qashqar rubobi va chang singari cholg‘ularning ovozi yangitdan yangradi.

XIX- asrda ijrochilik amaliyotida nay, qo‘schnay, surnay, karnay, bo‘laman, chang, qashqar rubobi, buxoro (afg‘on) rubobi, tanbur, dutor, do‘mbra, g‘ijjak, sato, doira, qayroq, safoyl kabi cholg‘ular mustahkam o‘rin oldi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Abdulin E.B. Teoriya muzыkalьnogo obrazovaniya. – M.: Akademiya, 2004. – 467 s.
2. Abdullaeva M.A. Oilada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish. Ped. fan. nom. ...dis. – T.: “Oila” ilmiy-amaliy markazi, 2009. -160 b.
3. Abdullaeva SH.SH. Pedagogicheskie texnologii razvitiya poznavatel’nykh tvorcheskix sposobnostey uchashchixsya mladshix klassov: Dis.... kan. ped. nauk. – T., 2005. -121s.
4. Agurbekkezi A. Professionalьno-pedagogicheskaya napravленность instrumentalьnoy podgotovki budushchegouchitelya k rabotes muzыkalьnym materialom. Avtoreferat. – T.: 2001. 48 - b.
5. Azimov K. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari havaskorlik orkestri bilan ishslash uslubiyati. – T., 2002. –B. 106.
6. Shamsutdinova, D. (2020). *Musiqa ijrosi va uning pedagogik ahamiyati*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
7. Tursunov, A. (2018). *Konsert ijrosining psixologik jihatlari*. Toshkent: Toshkent davlat konservatoriysi nashriyoti.

<sup>13</sup> Vosifiy, Z. (1510). *Badoe’ ul-vaqoe’*. Tehron: Markazi Nashr.

<sup>14</sup> Qodirov, T. (2014). *O‘zbek musiqa san’ati tarixi*. Toshkent: O‘qituvchi.

<sup>15</sup> Vosifiy, Z. (1510).